KASBIY MULOQOTIDA MODALLIKNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI)

Sirojidinova Dilraboxon Baxtiyor qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi,
dilrabosirojidinova1030@mail.ru

Annotatsiya
Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida modallik kategoriyasining kasbiy muloqot doirasida namoyon bo‘lishi lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Modallik vositalari (modal fe’llar, modal so‘zlar, modal-predikativ birliklar) orqali ifodalanadigan milliy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va mentalitet xususiyatlari qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz kasbiy diskursida epistemik modallik va ehtiyot strategiyalari (hedging) individualizm va past kontekstli madaniyat bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek kasbiy muloqotida deontik modallik va hurbat ifodalari kollektivistik qadriyatlar hamda yuqori hokimiyat masofasi bilan chambarchas bog‘liq. Maqola qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, modallik, kasbiy muloqot, epistemik modallik, deontik modallik, milliy mentalitet, xushmuomalalik strategiyalari, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

KIRISH

Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar zamonaviy tilshunoslikning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Lingvokulturologiya – til va madaniyatning o‘zaro aloqasini, milliy mentalitetning tilda namoyon bo‘lishini o‘rganuvchi fan sifatida so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Bu soha vakillari til birliklarida mujassamlashgan milliy-madaniy ma’nolarni, xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlari va ijtimoiy normalarining lisoniy ifodasini tadqiq etadilar. Modallik kategoriyasi esa tilshunoslikda fikrning voqelikka munosabatini, so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga subyektiv bahosini ifodalovchi muhim vosita sifatida ta’riflanadi. Modallik vositalari orqali so‘zlovchi nafaqat imkoniyat, zaruriyat, majburiyat kabi obyektiv munosabatlarni, balki ishonch darajasi, ehtimollik, shubha, istak kabi subyektiv ma’nolarni ham ifodalaydi. Kasbiy muloqotda modallik vositalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki professional muhitda so‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan ishonchi, taklifning kategorikligi yoki ehtiyotkorligi, hamkasbiga nisbatan hurmat darajasi – bularning barchasi modal birliklar yordamida ifodalanadi [1]. Aynan shu nuqtada modallikning lingvokulturologik jihatlari namoyon bo‘ladi: har bir madaniyat vakillari kasbiy muloqotda modal vositalardan o‘ziga xos tarzda foydalanadilar, bu foydalanish esa ularning milliy mentaliteti, qadriyatlari va ijtimoiy normalari bilan belgilanadi.

O‘zbek va ingliz tillari turli tipologik guruhlarga mansub bo‘lib, ularning birinchisi turkiy (aglyutinativ), ikkinchisi german (analitik) tillar oilasiga kiradi . Shu bilan birga, bu ikki xalqning madaniyati, turmush tarzi, qadriyat tizimi ham tubdan farqlanadi. Ingliz madaniyati individualistik, past kontekstli va past hokimiyat masofasiga ega bo‘lsa, o‘zbek madaniyati kollektivistik, yuqori kontekstli va yuqori hokimiyat masofasi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Lingvokulturologik tahlil – til birliklaridagi milliy-madaniy ma’nolarni, konseptual tuzilmalarni va ularning madaniy konnotatsiyalarini aniqlash uchun ;

Qiyosiy-tipologik metod – ikki tildagi modal vositalarning o‘xshash va farqli jihatlarini tizimli taqqoslash uchun ;

Pragmatik tahlil – modal birliklarning nutqiy vaziyatdagi funksiyalarini (xushmuomalalik, ehtiyotkorlik, kategoriklik, hurmat ifodasi) o‘rganish uchun ;

Kontent-tahlil – matnlardagi modal birliklarning qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlash uchun;

Diskurs tahlil – kasbiy muloqotning janr va vaziyat xususiyatlarini hisobga olgan holda modal vositalarning qo‘llanishini o‘rganish uchun[2].

NATIJALAR VA TAHLIL

O‘zbek va ingliz tillarida modallik ifodalanishining grammatik tizimi tubdan farqlanadi. Ingliz tilida modallik asosan modal fe’llar (modal verbs) orqali ifodalanadi: can, could, may, might, must, shall, should, will, would. Bu fe’llar o‘ziga xos grammatik xususiyatlarga ega: ular shaxs-sonda tuslanmaydi, infinitiv bilan birgalikda qo‘llanadi va sof modal ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilida esa modallik modal-predikativ birliklar (kerak, mumkin, lozim, shart, darkor) va modal so‘zlar (albatta, shubhasiz, ehtimol, darhaqiqat) orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, o‘zbek tilida modal ma’nolar fe’l shakllari (shart mayli, maqsad mayli) va sintaktik konstruksiyalar yordamida ham ifodalanadi. O‘zbek tilida esa modal-predikativ birliklar soni nisbatan cheklangan bo‘lib, nozik ma’no farqlari ko‘pincha kontekst yoki qo‘shimcha leksik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, kerak so‘zi ham zaruriyat, ham ehtimollik ma’nosida qo‘llanishi mumkin: “U borishi kerak” (majburiyat) va “U kelgan kerak” (ehtimollik) [2].

Epistemik modallik va ingliz individualizmi. Epistemik modallik – so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrning haqiqatga muvofiqligiga bo‘lgan ishonch darajasini ifodalovchi modallik turidir. Ingliz kasbiy muloqotida epistemik modallik vositalari juda keng qo‘llanadi. Xususan, ilmiy maqolalarda may, might, could, perhaps, possibly, presumably kabi vositalar orqali muallif o‘z fikrlarining kategorik emasligini, bu fikrlar faqat bir nuqtai nazar ekanligini ifodalaydi. Tadqiqotimizda tahlil qilingan ingliz ilmiy maqolalarining 87 foizida epistemik modallik vositalari uchraydi. Bu ingliz akademik diskursida “ehtiyotkorlik” (hedging) strategiyasining muhimligini ko‘rsatadi . Ingliz olimlari o‘z xulosalarini kategorik ifodalashdan saqlanishadi, chunki har qanday fikr tanqidga ochiq va boshqa tadqiqotchilar tomonidan rad etilishi mumkin deb hisoblanadi.

Misol 1: Ingliz ilmiy maqolasidan parcha

“These findings may suggest that there is a correlation between the two variables, though further research might be needed to confirm this hypothesis.”

Bu yerda may suggest va might be needed vositalari muallifning fikrlarini ehtiyotkorlik bilan ifodalashini ko‘rsatadi. Muallif o‘z xulosalarini mutlaq haqiqat sifatida emas, balki bir faraz sifatida taqdim etmoqda. O‘zbek ilmiy maqolalarida esa epistemik modallik vositalari nisbatan kam qo‘llanadi. Tahlil qilingan o‘zbek maqolalarining atigi 52 foizida epistemik modallik vositalari uchraydi. O‘zbek olimlari

ko‘pincha o‘z fikrlarini kategorik ifodalashga moyil: “Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki...”, “Muallifning fikricha...”, “Aniqlanishicha...” kabi konstruksiyalar ko‘p qo‘llanadi [4].

Misol 2: O‘zbek ilmiy maqolasidan parcha

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki til o‘rtasidagi farqlar ularning tipologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu yerda ko‘rsatadiki fe’li kategorik ma’noga ega bo‘lib, muallifning o‘z xulosasiga to‘liq ishonchini ifodalaydi. Bu farqning lingvokulturologik asosini ingliz va o‘zbek madaniyatidagi individualizm-kollektivizm qarama-qarshiligida ko‘rish mumkin. Individualistik madaniyatda har bir shaxs o‘z fikri uchun shaxsan javobgar bo‘ladi va o‘z fikrlarini boshqalarga majburlamaslikka harakat qiladi. Kollektivistik madaniyatda esa ilmiy jamoaning umumiy qarashlari mavjud bo‘lib, yakka tadqiqotchi shu qarashlar doirasida fikr yuritadi.

Deontik modallik va o‘zbek kollektivizmi. Deontik modallik – majburiyat, zaruriyat, ruxsat kabi ma’nolarni ifodalovchi modallik turidir. O‘zbek kasbiy muloqotida deontik modallik vositalari juda keng qo‘llanadi. Xususan, ishbilarmonlik xatlari va rasmiy hujjatlarda kerak, lozim, shart kabi so‘zlar orqali majburiyat va zaruriyat ifodalanadi[7].

Misol 3: O‘zbek ishbilarmonlik xatidan parcha

“Hujjatlarni topshirish muddatiga qat’iy rioya qilish lozim. Belgilangan muddatda topshirilmagan hujjatlar ko‘rib chiqilmaydi.” Bu yerda lozim so‘zi qat’iy majburiyatni ifodalaydi va yuqori turuvchi organning talabini bildiradi. Ingliz ishbilarmonlik xatlarida esa majburiyat ifodalari yumshoqroq shaklda beriladi. Should, ought to, are expected to kabi vositalar qo‘llanib, buyruq emas, balki tavsiya shaklida ifodalanadi.

Misol 4: Ingliz ishbilarmonlik xatidan parcha

“We would appreciate it if you could submit the documents by the end of the week.”

Bu yerda would appreciate va could vositalari iltimos shaklida bo‘lib, majburiyatni yumshatadi. Bu farqning lingvokulturologik asosini hokimiyat masofasi (power distance) konsepti bilan izohlash mumkin. Hofstede nazariyasiga ko‘ra, O‘zbekiston yuqori hokimiyat masofasiga ega mamlakatlardan biri bo‘lib, bu yerda rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlar qat’iy iyerarxik xususiyatga ega. Shu sababli, rasmiy hujjatlarda majburiyat va zaruriyat kategorik shaklda ifodalanadi. Ingliz madaniyatida esa hokiyat masofasi past bo‘lib, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar nisbatan teng huquqli hisoblanadi. Shu sababli, majburiyat ifodalari yumshoq, iltimos shaklida beriladi [5].

Xushmuomalalik strategiyalari va modal vositalar. Xushmuomalalik (politeness) strategiyalari kasbiy muloqotning muhim tarkibiy qismidir. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik ifodalashning o‘ziga xos vositalari mavjud bo‘lib, ular modal birliklar bilan chambarchas bog‘liq. Ingliz kasbiy muloqotida salbiy xushmuomalalik (negative politeness) strategiyasi ustunlik qiladi. Bu strategiya suhbatdoshning shaxsiy hududiga tajovuz qilmaslik, unga bosim o‘tkazmaslik, erkin tanlash huquqini hurmat qilishga asoslanadi. Bu strategiya modal fe’llarning yumshoq shakllari (could, would, might) orqali amalga oshiriladi.

Misol 5: Ingliz ishbilarmonlik muloqotidan

“I was wondering if you might have time to look at this report.”

Bu yerda might fe’li va I was wondering konstruksiyasi suhbatdoshga bosim o‘tkazmaslik, uning vaqtini hurmat qilishni ifodalaydi. O‘zbek kasbiy muloqotida esa ijobiy xushmuomalalik (positive politeness) strategiyasi ustunlik qiladi. Bu strategiya suhbatdoshga yaqinlik, birdamlik va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga asoslanadi. Bu strategiya hurmat ifodalari, murojaat shakllari va modal-predikativ birliklarning muayyan qo‘llanishi orqali amalga oshiriladi [5].

Misol 6: O‘zbek ishbilarmonlik muloqotidan

“Akajon, shu masalani ko‘rib chiqsangiz, yaxshi bo‘lardi.”

Bu yerda Akajon murojaati hurmatni, -sa shart mayli va yaxshi bo‘lardi konstruksiyasi esa muloyim iltimosni ifodalaydi. Qodirova (2024) ta’kidlashicha, o‘zbek ishbilarmonlik diskursida evfemizm va implikatura (yashirin ma’no) muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘zbek madaniyatidagi hurmat va xushmuomalalik qadriyatlari bilan bog‘liq[3]. Ingliz tilida esa metafora va evfemizmlar orqali nozik ma’nolarni ifodalash keng tarqalgan.

Kasbiy terminologiya va modal konnotatsiyalar. Kasbiy terminologiya ham lingvokulturologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Kaipbergenova (2026) o‘zbek va ingliz tillarida kasbiy terminlarning shakllanishi, ularning semantik qatlamlari va ijtimoiy-madaniy mazmunini tahlil qilgan. Tadqiqotchining fikricha, kasbiy terminlar milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning qo‘llanishida gender aspektlari va madaniy konnotatsiyalar muhim rol o‘ynaydi [9]. Masalan, ingliz tibbiyot diskursida doctor so‘zi bilan birga qo‘llanadigan modal fe’llar ko‘pincha tavsiya va maslahat ma’nosida keladi: “You should take this medication” (tavsiya). O‘zbek tibbiyot diskursida esa shifokor nutqida kerak, lozim kabi majburiyat ifodalari ko‘proq qo‘llanadi: “Dori-darmonlarni vaqtida ichish kerak” (majburiyat). Bu farq ham madaniy omillar bilan bog‘liq: ingliz jamiyatida shifokor-bemor munosabatlari teng huquqli hamkorlik sifatida qaralsa, o‘zbek jamiyatida shifokor hokimiyat egasi, bemor esa unga bo‘ysunuvchi sifatida talqin qilinadi[10].

MUHOKAMA

O‘zbek va ingliz tillarida modallik ifodalanishining lingvokulturologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki tildagi modal vositalarning qo‘llanishidagi farqlar ularning madaniy qadriyatlaridagi tub farqlarni aks ettiradi. Epistemik modallik va individualizm. Ingliz kasbiy muloqotida epistemik modallik vositalarining keng qo‘llanishi individualistik madaniyat bilan bog‘liq. Individualistik madaniyatda har bir shaxs o‘z fikri uchun javobgar bo‘ladi va o‘z fikrlarini mutlaq haqiqat sifatida taqdim etishdan saqlanadi. Bu holat, ayniqsa, ilmiy diskursda yaqqol ko‘zga tashlanadi: ingliz olimlari o‘z xulosalarini ehtiyotkorlik bilan, “balki”, “ehtimol” kabi vositalar orqali ifodalaydilar. O‘zbek ilmiy diskursida esa epistemik modallik vositalari nisbatan kam qo‘llanadi[8]. Bu o‘zbek madaniyatidagi kollektivistik qadriyatlar bilan izohlanishi mumkin: kollektivistik jamiyatda ilmiy haqiqat jamoaviy ravishda belgilanadi va yakka tadqiqotchi shu haqiqatni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi.

Deontik modallik va hokimiyat masofasi. O‘zbek kasbiy muloqotida deontik modallik vositalarining keng qo‘llanishi yuqori hokimiyat masofasi bilan bog‘liq. Yuqori hokimiyat masofasiga ega jamiyatlarda rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlar qat’iy iyerarxik xususiyatga ega bo‘lib, bu holat tilda majburiyat va

zaruriyat ifodalarining kategorik shakllarda berilishida namoyon bo‘ladi.Ingliz kasbiy muloqotida esa past hokimiyat masofasi tufayli majburiyat ifodalari yumshoq, tavsiya shaklida beriladi. Bu ingliz madaniyatidagi tenglik va individual erkinlik qadriyatlari bilan bog‘liq.

Xushmuomalalik strategiyalari. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik ifodalashning turlicha strategiyalari qo‘llanadi. Ingliz tilida salbiy xushmuomalalik (suhbatdoshning shaxsiy hududini hurmat qilish) ustunlik qilsa, o‘zbek tilida ijobiy xushmuomalalik (suhbatdoshga yaqinlik va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish) ustunlik qiladi. Bu farq ham ikki madaniyatning individualistik va kollektivistik xususiyatlari bilan bog‘liq.

Implikatura va yashirin ma’nolar. Qodirova (2024) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek ishbilarmonlik diskursida implikatura (yashirin ma’no) muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida ko‘p narsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmaydi, balki kontekst orqali ifodalanadi. Bu o‘zbek madaniyatining yuqori kontekstli madaniyat ekanligi bilan bog‘liq. Ingliz madaniyati esa past kontekstli madaniyat bo‘lib, ma’lumotlarning asosiy qismi ochiq kodlangan, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadi [3].

XULOSA

O‘zbek va ingliz tillarida modallik ifodalanishining kasbiy muloqot doirasidagi lingvokulturologik tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Tizimiy farqlar: Ingliz tilida modallik asosan modal fe’llar orqali, o‘zbek tilida esa modal-predikativ birliklar va modal so‘zlar orqali ifodalanadi. Bu farqlar tillarning tipologik xususiyatlari bilan bog‘liq.

2. Epistemik modallik: Ingliz kasbiy muloqotida epistemik modallik vositalari keng qo‘llanadi, bu individualistik madaniyat va past kontekstli muloqot uslubi bilan bog‘liq. O‘zbek kasbiy muloqotida epistemik modallik vositalari nisbatan kam qo‘llanadi, bu kollektivistik qadriyatlar va yuqori kontekstli muloqot uslubi bilan izohlanadi.

3.Deontik modallik: O‘zbek kasbiy muloqotida deontik modallik vositalari keng qo‘llanib, majburiyat va zaruriyat kategorik shakllarda ifodalanadi. Bu yuqori hokimiyat masofasi bilan bog‘liq. Ingliz kasbiy muloqotida majburiyat ifodalari yumshoq, tavsiya shaklida beriladi, bu past hokimiyat masofasi bilan izohlanadi .

4. Xushmuomalalik strategiyalari: Ingliz kasbiy muloqotida salbiy xushmuomalalik, o‘zbek kasbiy muloqotida ijobiy xushmuomalalik strategiyasi ustunlik qiladi. Bu farq ikki madaniyatning individualistik va kollektivistik xususiyatlari bilan bog‘liq.

5. Implikatura va yashirin ma’nolar: O‘zbek kasbiy diskursida yashirin ma’nolar, evfemizm va implikatura muhim rol o‘ynaydi, bu o‘zbek madaniyatining yuqori kontekstli xususiyati bilan bog‘liq. Ingliz kasbiy diskursida esa ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadi, bu past kontekstli madaniyatga xos xususiyatdir.

Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va chet tillarni o‘qitish metodikasi uchun amaliy ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillarida so‘zlashuvchi mutaxassislar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirish uchun modallik vositalarining lingvokulturologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Kelgusidagi tadqiqotlar modallikning boshqa turlarini (dinamik modallik, aletik modallik) lingvokulturologik jihatdan o‘rganishga,

shuningdek, modallik vositalarining boshqa kasbiy sohalarda (huquq, tibbiyot, pedagogika) qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilishi mumkin.

ADABIYOTLAR.

1.Ismailova O. (2024). “The Pragmatic Function of Modal Verbs and the Distinctions between Uzbek and English in Terms of Cognitive Analysis”. Zenodo.

2.Modallik va modal so‘zlar tadqiqi. (2024). “Modal so‘zlar ishtirokida modallik ma’nosini ifodalash”. Zenodo.

3.Qodirova, M.T. (2024). “The Methods of Studying Implicitness in Business Discourse (Based on the Analysis of the Uzbek and English Languages)”. American Journal of Philological Sciences, 4(10), 97–104.

4.Nizomova, N.A. (2025). “Ingliz va o‘zbek tillarida “makon” konseptini ifoda etuvchi birliklarning chog‘ishtirma tadqiqi”. Farg‘ona davlat universiteti.

5.Communication Strategies in English and Uzbek Languages. (2025). Zenodo.

6.Lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar. (2024-2025). inLIBRARY ma’lumotlar bazasi.

7.Normatova, A. (2025). “Modal Predicative Structures in English and Uzbek: Differences and Similarities”. International Journal of Artificial Intelligence, 1(4), 365–368.

8.Muhammedova, N. (2025). “The Grammatical Verb Categories in the English and Uzbek Languages”. UzSWLU konferensiya materiallari, 1105–1111.

9.Kaipbergenova, D. (2026). “Linguocultural Aspects of Professional Terminology in English and Uzbek”. Acta NUUz, 1(1.2), 292–294.

10.Turakulova, D.M. (2025). “Ingliz va o‘zbek tillarida epistemik modallikning lingvokulturologik xususiyatlari”. O‘zDJTU dissertatsiyasi.